



Journal of Natural Sciences

№3
(2021)

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош мухаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор4. Султонов М-к.ф.д, доц5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.6. Хакимов К –г.ф.н., доц.7. Азимова Д- б.ф.н.8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**O’QUVCHILARNING GEOGRAFIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHGA PEDAGOGIC-PSIXOLOGIK YONDOSHUV**

Haydarova Surayyo Abdusalomovna-Jizzax davlat pedagogika instituti, o’qituvchi

Annotasiya: Ushbu maqolada maktab o’quvchilarida geografiya faniga oid kompetensiya elementlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillar to’g’risida ilmiy–nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Аннотация: В статье излагаются научно-теоретические взгляды на педагогические и психологические факторы формирования элементов компетенции по географии у школьников.

Annotation: This article puts forward scientific and theoretical views on the pedagogical and psychological factors in the formation of competence elements in geography in schoolchildren.

Kalit so’zlar: ta’lim, geografiya, kompetentlik, psixologik, o’quvchi, pedagogik, texnologiya, metod.

Ключевые слова: образование, география, компетентность, психологический, студент, педагогический, технология, метод.

Keywords: education, geography, competence, psychological, student, pedagogical, technology, method.

Ta’lim tizimini samarali tashkil etishning bir qator ilmiy- zamonaviy omillari bo’lib, psixologik-pedagogik yondashuv bu masalada muhim rol o’ynaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib geografiya ta’lim tizimini tashkil etishning psixologik-pedagogik jihatlariga e’tibor qaratishni maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash lozimki shaxs tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat maqsad, vosita, o’zgartirish jarayoni va uning natijasini o’z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha o’qituvchi va o’quvchi faoliyatining maqsadi, vositasi va natijalari hamda ularning o’zaro ta’siri va bog’liqligi masalasi ilmiy jihatdan o’rganilishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Maktab o’quvchilarining o’quv jarayoni va bilish faoliyatining shakllanishi hamda uning xususiyatlarini o’rganish bilan bog’liq masalalar V.M.Avdeev, G.P.Aksakalova, V.I.Zagvyazinskiy, L.S.Vigotskiy, E.I.Mashbis, N.F.Talizina, A.P.Tryapisina, A.V.Usova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot ishlari tahlilidan kelib chiqqan holda geografik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan o’quv jarayon faoliyati bevosita o’quvchilarning pedagogik vaziyatdagi pozitsiyasiga bog’liq degan ilmiy farazni ilgari surishimizga asos bo’ldi.

Mazkur ilmiy farazga yaqin bo'lgan fikr-mulohazalar O.M.Zaychenko, Yu.Yu.Kolesnikov, Yu.A.Konarjevskiy, N.V.Kuzmina, G.K.Selevko, L.S.Chopenko kabi tadqiqotchilar ilmiy – nazariy ishlarida ham aks etgan bo'lib, ular o'quv va bilish faoliyati asosan o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi degan qarashni ilgari surishgan.

Maktab o'quvchilarida geografiya faniga oid kompetensiya elementlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lib, ular:

- *birinchidan*, geografiya faniga oid bilim va e'tiqodni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish;

- *ikkinchidan*, geografiya fani tushuncha va atamalarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish uchun pedtexnologiyani zamonaviy metodlaridan foydalanish;

- *uchinchidan*, geografiya fanini o'qitishda informasion texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda tushunarli, aniq, obrazli va ko'rgazmali taqdimot asosida o'quvchilarga yetkazish;

- *to'rtinchidan*, fanga oid metodlarni ratsional tizimlashtirish, ichki mantiq va uzviy tuzilishni ta'minlash;

- *beshinchidan*, o'zlashtirish ya'ni geografiyaga oid misol va masalalarni (xaritalarni o'rganish, masshtab va geodezik tushunchalarni chizish) yechishda amaliy geografik bilimlarni qo'llash.

Geografiya faniga oid kompetensiya maktab o'quv jarayonida o'quvchilarda shakllantiriladigan ko'nikma va malakaning qay darajada tarkib topishiga ham bog'liq bo'lib, quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- *birinchidan*, geografik ko'nikmalar ko'p o'lchovli va murakkab jarayon ekanligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish zarur;

- *ikkinchidan*, o'quv jarayonlari algoritmining to'liq mazmunlilik, asoslilik va maqsadga muvofiqligiga erishish uchun o'quvchilarda alohida individual yo'nalganlikni qaror toptirish;

- *uchinchidan*, o'quvchilarda operatsion tafakkurni shakllantirish hamda psixologik, pedagogik va yosh xususiyatlari hisobga olish muhim.

O'quvchilarni geografiya faniga oid shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda o'quv faoliyati yetakchi tarkibiy omil sifatida qaraladi. Uning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi natijasi o'quvchining intellektual va axloqiy rivojlanishida, ijodiy faoliyati va dunyoga hissiy munosabati hamda idrokni shakllantirib, ushbu jarayon quyidagi ilmiy tamoyillarni taqozo etadi:

- *birinchidan*, o'qituvchi geografik axborot tizimlaridan foydalangan holda o'quv geografik materiallarning sifat va zamonaviyligi, nazariy va amaliy jarayonni

optimallashtirish, statistik ma'lumotlar tahlili hamda dinamik o'sishini o'quvchilarga yetkazishni ta'minlaydi;

- *ikkinchidan*, zamonaviy ta'lim modellarini yaratish orqali asosiy geografik chizmalarni taqdim etish usullarini takomillashtirish;

- *uchinchidan*, fanga oid o'quv parametrlarini kompyuter (axborot texnologiya) imkoniyatlaridan foydalangan holda geografik kompetensiyani shakllantirish jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish.

Ushbu yondashuv o'quvchini ta'lim olishga qaratilgan maqsadiga erishishi uchun o'z strategiyasini ongli ravishda tanlash imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, dasturiy ta'minotni taqdim etib, o'quvchilarda geografik materialni o'zlashtirish sifatini oshirishga yordam beradi. Bu jarayon tizimli va izchillik prinsipi asosida ta'lim faoliyatini boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, geografik kompetensiyani shakllantirish jarayonida vizualisasiyaning didaktik funksiyalari kengayadi. Chunki geografik materialni idrok etish va tizimlashtirishning an'anaviy funksiyalaridan tashqari, kommunikativ vaziyatlar va psixologik muhitni yaratishda vizualizasiya faollashtiruvchi va modellashtirish funksiyasini ham bajaradi.

Tadqiqotchilar V.P.Maksakovskiy va A.P.Tryapisina fikriga ko'ra, faoliyat yondashuvi asosida o'quvchilarda geografik kompetensiya o'quv jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib, quyidagilarda aks etadi:

- geografik kompetensiyani shakllantirishga asos bo'luvchi motivasiya;

- geografik kompetensiya mazmuni va har xil vaziyatlarda namoyon etishni o'zida aks ettirgan kognitivlik;

- geografik kompetentlikni ifodalashga yo'naltirilgan faoliyatning asoslanganligi;

- geografik kompetensiyaning mazmuni, qo'llash ob'ekti va jarayonni hissiy-irodaviy tartibga solish hamda uni ifodalash natijalari bilan bog'liq holda ifodalangan qiymatning mavjudligi.

Bizningcha ushbu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Muqaddima: U o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida geografik kompetensiyaning shakllanish darajasi va uning o'quv motivlarini rag'batlantirish hamda fanga qiziqish va simpatik munosabatni o'z ichiga oladi.

- Ta'lim – tarbiya va bilim: Uning asosiy maqsadi geografik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirish, ya'ni sinfda o'zini boshqarish, o'qituvchiga munosabat, darsga o'z vaqtida kelish, berilgan topshiriqlarni bajarish, bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy xususiyatlardan iborat.

- Ma'lumot va axborotlarni umumlashtirish: Ushbu bosqichda geografik kompetensiya tarkibiy qismlarining aloqalari va munosabatlarini turli shakl va usullar orqali o'zlashtirish bo'yicha ishlar tashkil etiladi.

- Analiz va sintez: U geografik kompetensiyaning shakllanish darajasini o'rganishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak geografik kompetensiyaning shakllantirish jarayoni mahsuldorligi mavjud uslubiy shart-sharoitlar majmuini amalga oshirish bilan asoslanib, ular:

- o'quvchilarda fanga oid motivasiya va o'rganishga tayyorlikni shakllantirish;

- o'qitish tizimini samarali tashkil etish va maqsadli o'ynaltirish;

- o'quv jarayonida o'quvchining geografik kompetensiyasini shakllantirish uchun zaruriy favqulodda yondashuvning tashkiliy asoslarini yaratish;

- geografik kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur va o'zaro bog'liq shakllar, usullar hamda o'quv qo'llanmalar to'plamini amalga oshirish va maqsadli ta'sir mexanizmini yaratish;

- o'quvchilar o'quv-kognitiv faoliyatini maqsadli tashkil etish;

- maktab o'quvchilarida geografik kompetensiyaning shakllantirishga yo'naltiruvchi, mustaqil ravishda axborot olish va undan foydalanish manbasiga yo'naltirish;

- tizimli nazorat monitoringni amalga oshirish asosida geografik kompetensiyaning shakllanish darajasini tekshirish;

- geografik kompetensiyaning shakllanish darajasini nazorat qilib borish asosida, rivojlanish dinamikasini ta'minlovchi nazariy va amaliy manbalarni omilkorlik bilan tadbiq etish.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'quvchilarning geografik kompetensiyasini shakllantirishda alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda maktab o'quvchilarida geografiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'ziga xos jarayon bo'lib, bunda asosan o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq: haqiqiy pedagogik kasbiy faoliyatni egallashda namoyon bo'ladigan maxsus malaka hamda kasbiy salohiyatini rejalashtirish qobiliyati; kasbiy kompetentlik – bu o'quvchilarga bilim berishda ma'naviy javobgarlikni his etish va yuqori darajadagi professionallikka erishish; pedagogik shaxsiy kompetentlikka erishish ya'ni, kasbiy deformatsiyaga qarshi turish, psixologik jihatdan o'zini o'zi namoyon etish va boshqarish texnikasini o'zlashtirish kabi jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gapparov A., Haydarova S., Zaynutdinova D. Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
2. Haydarova S. et al. Modern Technologies in Improving the Quality of Teaching //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
3. Haydarova S., Usarov J., Eshnayevev N. defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
4. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
5. Haydarova S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
6. Gapparov A., Haydarova S., Kayumova M. Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
7. Haydarova S. GEOGRAFIYA DARSLARIDA ELEKTRON TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISH //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
8. Haydarova S., Mavlonov X., Muxamedov O. Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida) //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
9. Komilova N. K. et al. Territorial structure of agriculture development in Uzbekistan in terms of economical geography //J. Advanced Res. L. & Econ. – 2019. – Т. 10. – С. 2364.
10. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. *European science review*, (3-4).
11. Abdusalomovna K. S. FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCIES OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY //International journal of discourse on innovation, integration and education. – 2020. – Т. 1. – №. 5. – С. 384-387.
12. ABDUSALOMOVNA H. S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 29-36.

13. Eshbekovich U. J., Jumayevich E. N., Abdusalomovna H. S. Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 8. – С. 6-6.
14. Ҳайдарова С., Юсуфов Ж. КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДОШУВ АСОСИДА ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 2.
15. Gapparov, A., & Khaydarova, S. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.